

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>I.O.Raxmonova</b>	
Ingliz tilidagi "Food"/"Oziq-ovqat" konseptining milliy xususiyatlari.....	1101
<b>Sh.G.Akbarova</b>	
A comparative analysis of the original and the translations of the essay "The stranger" (L'etranger) by Alber Camus.....	1107
<b>Sh.G.Akbarova</b>	
Alber Kamyu asarlari tarjimasiga mazmun va mohiyat ta'siri .....	1111
<b>Sh.G.Akbarova</b>	
О некоторых тайнах Французских артиклей .....	1115
<b>D.A.Ganieva, G.S.Mirzayeva</b>	
Realialarning madaniy konnotativ xususiyatlari.....	1118
<b>G.S.Mirzayeva</b>	
Lingvokulturemalar tarjimasida translitratsiya usuli.....	1122
<b>N.K.Abbasova</b>	
Formation of foreign-language communicative competences in language learners using english proverbs and sayings.....	1125
<b>A.A.Qayumov, A.B.Kosimova</b>	
Jahon adabiyotida drabllarning o'rganilishi .....	1130
<b>D.I.Mirzayeva</b>	
O'xshatish uslubiy kategoriyasining semantik-stilistik xususiyatlari.....	1134
<b>D.A.G'aniyeva, S.Yaxyoyeva</b>	
Abbreviatsiya so'z yasashning samarador usuli sifatida .....	1137
<b>Sh.B.Dushatova</b>	
Unveiling implicit meaning: exploring the subtext of euphemisms .....	1140
<b>Sh.B.Dushatova, X.J.Xoliqova</b>	
The psychology of euphemisms: why do we use them?.....	1144
<b>Z.M.Xalilova</b>	
Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida .....	1148
<b>A.S.Toshmatov</b>	
Beyond grammar: building confidence and clarity in student writing (higher education) .....	1153
<b>N.X.Qurbonov</b>	
The positive effects of video games in teaching english to beginner-level learners .....	1160
<b>D.E.Normatova</b>	
Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati.....	1166
<b>D.R.Axmadaliyeva</b>	
Talabalarning ingliz tilida nutqiy kompetensiyasini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi.....	1171
<b>N.Sh.Abdullayeva</b>	
Talabalarning xorijiy tilda kasbiy muloqotini o'rgatish jarayonida dlii texnologiyalarining integratsiyasi.....	1177
<b>S.A.Aliyeva</b>	
Geortonimlar bilan bog'liq perifrazalar tadqiqi.....	1182
<b>S.A.Aliyeva</b>	
Turli tizimli tillarda geortonimik indikatorlarning leksik-semantik xususiyatlari .....	1185
<b>M.A.Axundjanova</b>	
A cooperative small group methodology in teaching english for esp students .....	1189
<b>R.M.Shukurov, F.B.Abduraximova</b>	
Turli tizimli tillarda so'z yasashining umumiy va farqli jihatlari .....	1193
<b>F.B.Abduraximova</b>	
O'zbek tilida mubolag'a va uning darajalanishi .....	1203
<b>Sh.F.Latipov</b>	
Unveiling the significance of linguistic lacuna in foreign language teaching.....	1208
<b>L.T.Galimullina</b>	
Semantic peculiarities of english phraseological synonyms with the component of precious stones and metals .....	1210



UO'K: 821.512.133.374

## ALBER KAMYU ASARLARI TARJIMASIGA MAZMUN VA MOHIYAT TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ СОДЕРЖАНИЯ И СУЩНОСТИ НА ПЕРЕВОД ПРОИЗВЕДЕНИЙ  
АЛЬБЕРА КАМЮTHE INFLUENCE OF THE CONTENT AND ESSENCE ON THE TRANSLATION OF THE  
WORKS OF ALBER CAMUSAkbarova Shaxlo Ganiyevna   
Farg'ona davlat universiteti, katta o'qituvchisi

## Annotatsiya

Ushbu maqolada asarlarni bir tildan ikkinchi tilga o'g'irishdagi o'ziga xos muammolarni atroflicha ilmiy asosda muhokama qilish masalasi maqsad qilib belgilangan. Maqolada bugungi kunda tarjimonlar yordamida milliy adabiyotlar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanayotganligi, o'zaro ta'sir va bir-birini boyitish jarayonlari tahlil qilingan. Bugungi kunda tarjimonlar yordamida milliy adabiyotlar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanmoqda, o'zaro ta'sir va bir-birini boyitish jarayonlari tezlashmoqda. Shu o'rinda O'zbekistonda fransuz madaniyati, tili va adabiyotiga bo'lgan qiziqish ham doimo katta bo'lganligini ta'kidlash lozim. Xususan, fransuz adabiyotidagi ma'lum va mashhur asarlarni rus tilidagi tarjimasini bilan birga original variantdan o'zbek tiliga tarjima qilish salmog'i anchagina ortganligi kuzatilmog'ida. Shu o'rinda Kamyu yaratgan asarlar asliyati ruhini, ayniqsa, tilini o'zbek tiliga mohirona o'g'irish ancha murakkab va ancha mehnat talab qiladi. Bundan tashqari maqolada badiiy asar tarjimasini o'rganish va asl varianti bilan qiyoslash nafaqat jahon xalqlarining umuminsoniy, ma'naviy-madaniy qadriyatlarini o'rtasidagi uyg'unlikni aniqlash, hamda har bir tilning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy o'rganish bilan birga, tarjima qilingan asar talqini va retsepsiyasi uchun ham hizmat qilishi asoslab berilgan. Kamyu asarlarining tarjimasini asiyat darajasida bo'lmasa, tarjima fransuz adibining insonning irodasi va matonati, uning va tabiatning yaxlitligi xususidagi ekzistensializm g'oyalarini anglashga, muallif da'vat etmoqchi bo'lgan absurd mazmunining mohiyatini to'g'ri retsepsiyasiga to'sqinlik qiladi. Demak, tarjima orqali amalga oshgan badiiy retsepsiya asar bosh g'oyasi va muallif badiiy niyatini to'g'ri talqin qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

## Аннотация

Целью данной статьи является обсуждение конкретных проблем перевода произведений с одного языка на другой на научной основе. В статье анализируется укрепление связей между национальными литературами с помощью переводчиков, процессы взаимодействия и взаимообогащения. Сегодня с помощью переводчиков укрепляются связи между национальными литературами, ускоряются процессы взаимодействия и взаимообогащения. Здесь следует отметить, что интерес к французской культуре, языку и литературе в Узбекистане всегда был велик. В частности, отмечается, что значимость перевода известных и знаменитых произведений французской литературы на русский язык с оригинального варианта на узбекский язык значительно возросла. На данный момент умелый перевод духа оригинальных произведений Камю, особенно языка, на узбекский язык очень сложен и требует большого труда. Кроме того, в статье исследование перевода художественного произведения и его сравнение с оригинальным вариантом призвано не только определить гармонию между общечеловеческими, духовными и культурными ценностями народов мира, но и изучение национальных и культурных особенностей каждого языка. Это оправдано тем, что оно служит для интерпретации и рецепции произведения. Если перевод произведений Камю не находится на уровне оригинала, то перевод препятствует пониманию экзистенциалистских идей французского писателя о воле и силе человека, целостности его и природы, правильному восприятию сущности мира, абсурдный контент, который хочет предложить автор. Поэтому художественный прием, реализуемый посредством перевода, важен для правильной интерпретации основной идеи произведения и художественного замысла автора.

## Abstract

The purpose of this article is to discuss specific problems of translating works from one language to another on a scientific basis. The article analyzes the strengthening of ties between national literatures with the help of translators, the processes of interaction and mutual enrichment. Today, with the help of translators, ties between national literatures are strengthened, the processes of interaction and mutual enrichment are accelerated. It should be noted here that interest in French culture, language and literature in Uzbekistan has always been great. In particular, it is noted that the importance of translating famous and famous works of French literature into Russian from the original version into the Uzbek language has increased significantly. At the moment, skillfully translating the spirit of Camus's original works, especially the language, into Uzbek is very difficult and requires a lot of work. In addition, in the article, the study of the

*translation of a work of fiction and its comparison with the original version is intended not only to determine the harmony between the universal, spiritual and cultural values of the peoples of the world, but also to study the national and cultural characteristics of each language. This is justified by the fact that it serves for the interpretation and reception of the work. If the translation of Camus's works is not at the level of the original, then the translation hinders the understanding of the French writer's existentialist ideas about the will and strength of man, the integrity of man and nature, and the correct perception of the essence of the world. the absurd content that the author wants to offer. Therefore, the artistic technique implemented through translation is important for the correct interpretation of the main idea of the work and the artistic intention of the author.*

**Kalit so'zlar:** Madaniy, tarjima nazariyasi, o'zaro ta'sir, badiiy retsepsiya, ekzistensializm, badiiy asar, talqin, g'oyaviy-estetik.

**Ключевые слова:** Культурология, теория перевода, взаимодействие, художественная рецепция, экзистенциализм, художественное произведение, интерпретация, идейно-эстетическое.

**Key words:** Cultural, translation theory, interaction, artistic reception, existentialism, artistic work, interpretation, ideological-aesthetic.

## KIRISH

Jahon xalqlari madaniy va ma'naviy boyliklari bilan tanishish o'z milliy merosimizga o'zgacha ko'z bilan qarashni taqozo etsa, o'zaro qiyoslash uni munosib baholash imkoniyatini yaratadi. "Qiyosiy adabiyotshunoslik o'xshash, qardoshlik va ta'sir jihatlarini orqali izlanadigan uslubiyat san'atidir" [1]. Shu ma'noda, mumtoz va zamonaviy chet el adabiyotidan bahramand bo'lish, o'rganish va tadqiq etish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki jahon adabiy jarayonidan xabardor kishi o'z milliy adabiyotini o'zgacha mehr va talabchanlik bilan baholaydi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Bu borada badiiy tarjimaning roli beqiyosdir. Badiiy tarjima sohasi qiyosiy adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning zamirida "Tarjima nazariyasi dastlab qiyosiy adabiyotshunoslik negizida qiyosiy-tajribaviy uslub sifatida shakllangan"[2], degan g'oya yotadi. Tarjimani adabiy tasirning muhim komponenti deb qarar ekanmiz, adabiyotlararo aloqalarni o'rganishga yo'naltirilgan har qanday tadqiqot asarlarni bir tildan ikkinchi tilga o'girishdagi o'ziga xos muammolar tahlilisiz olib borilmaydi.

Jahon tarjimashunosligi ilmiy maktablarida asarning asliyatini va uni tarjimada qayta yaratish muammolarini o'rganish va tadqiqotlar olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tarjima sharofati bilan hozirda, XXI asrda, antik, o'rta asrlar va zamonaviy adabiyotni tushunamiz va qadrlaymiz. Qadimgi madaniy me'rosga yoki o'zga xalqlar madaniyatiga qanchalik chuqur kirib borar ekanmiz, tarixiy davrlar hamda mamlakatlar o'rtasidagi uzoq masofa shuncha qisqarganligini his etamiz. Binobarin, tarjima nazariyasi va amaliyoti sohasining yirik namoyandalaridan biri, atoqli olim G'aybulloh as-Salom ta'biri bilan aytganda, "Tarjima san'atisiz xalqlar bir-birlari uchun soqov bo'lib qoladilar, bir-birlarini tushuna olmaydilar"[3]. Chunki aynan tarjimalar orqali bir xalqning san'ati, madaniyati va adabiyoti boshqa xalq orasiga kirib boradi.

Bugungi kunda tarjimonlar yordamida milliy adabiyotlar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanmoqda, o'zaro ta'sir va bir-birini boyitish jarayonlari tezlashmoqda. Shu o'rinda O'zbekistonda fransuz madaniyati, tili va adabiyotiga bo'lgan qiziqish ham doimo katta bo'lganligini ta'kidlash lozim. Xususan, fransuz adabiyotidagi ma'lum va mashhur asarlarni rus tilidagi tarjimasini bilan birga original variantdan o'zbek tiliga tarjima qilish salmog'i anchagina ortganligi kuzatilmoqda. Chunki, asosan XX asrdan boshlab tarjima qilina boshlagan fransuz adabiyoti vakillarining asarlariga bizda talab va ehtiyoj yuqori bo'lib kelgan. Taniqli olim va tarjimon A.Ko'chiboyev Jan Pol Runing "Amir Temur" romani, Prosper Merimening "Karmen" qissasini, shuningdek, Gi de Mopassan, A.Dode singari atoqli fransuz yozuvchilarining 50 dan ortiq novellalarini hamda V.Gyugo, P.Ronsar, V.Vuatyur, O.Bashe kabi fransuz shoirlarining qator she'rlarini o'zbek tiliga o'girib, matbuotda e'lon qilgan [4]. Bundan tashqari A.Ko'chiboyevning o'zbek adiblaridan G'.G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam", O'.Umarbekovning "Mehmondorchilikda" hikoyalarini, Azim Suyun va Musallamabonuning ayrim she'rlarini fransuz tiliga o'girdi va xorijda chop ettirdi. Eng quvonarlisi Toshkentdagi Fransiya elchixonasining ko'magi bilan o'tgan yillar ichida frantsuz adiblaridan Volterning "Zadig", F.Moriakning "Ilonlar changalida", Monteskyening "Fors nomalari", Le Klezioning "Mondo" va boshqa hikoyalar, Sharl Perroning "Ertaklar" kitobi fransuz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinib nashr etildi [5]. Bundan tashqari fransuz adabiyotining Mari Arue Volter, Onore de Balzak, Fredrik Stendal, Gyustav Flober, Gi de

## TILSHUNOSLIK

Mopassan, Romen Rollan, Marsel Eme, Alber Kamyu, Fransua Moriak, Jorj Simenon, Prosper Merime, Fransuaza Sagan singari mashhur yozuvchilarining bir qancha asarlari bir necha yillardan buyon o'zbek tilida o'qilmoqda, ba'zilar qayta-qayta nashr etilmoqda. Bunday tarjimalar yordamida milliy adabiyotlar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanmoqda, o'zaro ta'sir va bir-birini boyitish jarayonlari tezlashmoqda. Shu o'rinda Kamyu yaratgan asarlar asliyatining ruhini, ayniqsa, tilini o'zbek tiliga mohirona o'girish ancha murakkab va ancha mehnat talab qiladi. Kuzatishlarimiz natijasida shuni aytishimiz mumkinki, aynan Kamyu asarlarining tarjimasi asliyat darajasida bo'lmasa, tarjima fransuz adibining insonning irodasi va matonati, uning va tabiatning yaxlitligi xususidagi ekzistensializm g'oyalarini anglashga, muallif da'vat etmoqchi bo'lgan absurd mazmunining mohiyatini to'g'ri retsepsiyasiga to'sqinlik qiladi. Demak, tarjima orqali amalga oshgan badiiy retsepsiya asar bosh g'oyasi va muallif badiiy niyatini to'g'ri talqin qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR.

Kamyu o'z asarlari bilan ekzistensializm falsafasi va adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri sifatida absurd, hayot hamda o'lim motivlarini birinchilardan bo'lib o'zbek adabiyotiga olib kirdi. Kamyuning asarlari ekzistensializm ruhida yozilganligi bois, ularni sifatli tarjima qilish nihoyatda qiyin. Alber Kamyu asarlarining qiyosiy tarjimalari masalasi, xususan, "Begona" (L'Étranger) romani tilining murakkabligi va asarning sintaktik konstruksiyalari tufayli haligacha yetarlicha o'rganilmagan. "Begona" romani Nora Gal (Eleonora Galperina) va Natalya Nemchinova kabi rus tarjimonlari tomonidan fransuz tilidan rus tiliga tarjima qilingan. "Begona" asari hajm jihatidan romandan kamroq va qissadan ko'proq bo'lganligi bois ham roman ham qissa deb yuritiladi.

1995 yili "Begona" qissasi va "Vabo" romani Ahmad A'zam tarjimasida o'zbek tilida nashr etildi. Tarjimalar bir-biridan farq qilganligi bois, tarjimonlarning ishlari doimo baxs-munozalar va tanqidlarga uchragan. Asosiysi esa Kamyu niyatining qaysi tarjimon tarjimasida saqlanib qolganligi. Lekin fransuz yozuvchisi asarlarini o'zbekchalashtirish, gumanist adib ijodi bilan bir necha millionli o'quvchilarni yanada yaqinroq tanishtirish davr talabi edi. Kamyu ijodi o'zbek kitobxonlariga ma'lum bo'lib kelgan bo'lsa-da, uning asarlarining o'zbek tiliga o'girilishi adabiy hayotda katta voqea bo'ldi. Chindan ham, yarim asrdan buyon dunyo kitobxonlarini hayajonga solib, baxs-munozaralar uyg'otib kelayotgan fikri teran ijodkorning nomi rus tiliga qilingan tarjimalar orqali faol o'zbek yozuvchisiga va kitobxoniga anchadan beri tanish edi. Shunga qaramay, ko'p millionli o'zbek kitobxonlari uchun ushbu nashr muhim ahamiyatga ega bo'lganligi shubhasizdir.

1997 yili tashkil etilgan "Jahon adabiyoti" jurnalining ilk sonida A.Kamyuning "Isyonkor odam" asaridan katta parcha e'lon qilindi. Unda 1951 yilda Parijdagi Gallimer nashriyotida chop etilgan Yu.N.Stefanov amalga oshirgan ruscha tarjimasi [6] asosida Nazar Eshonqul asarning "Isyon va san'at" deb ataluvchi bobini tarjima qilgan [7]. Bobda "Roman va isyon", "Isyon va uslub" hamda "Isyon va inqilob" nomli falsafiy esselar joy olgan edi. Bundan tashqari, "Jahon adabiyoti" jurnalida "Nobel ma'ruzalari" rukni ostida "Yozuvchi bo'lish-sharaf" sarlavhasi bilan Kamyuning Shvetsiyada qilgan nutqi matni hamda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida yozuvchi kundaliklaridan parchalar e'lon qilindi [8]. Natijada bugungi kunda O'zbekistonda Kamyu ijodi XX asrning 60-80- yillaridagi singari rus tili vositasida emas, o'zbek tilida o'qib o'rganilayotganini, bu sohaga qiziqish katta ekanligi bois, turli yo'nalishda tadqiqotlar olib borilayotganining isbotidir. Bu bilan fransuz yozuvchisining tafakkur olami, o'ziga xos tasvir uslubi, asarlarida ilgari surilgan g'oyaviy-estetik niyat bilan yaqindan tanishish imkoniyatlari yanada kengaydi. Bundan tashqari, Kamyuning O'zbekistondagi adabiy jarayonga ta'siri haqida gapirish uchun yetarli asos paydo bo'ldi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak, tarjimada ham yozuvchi uslubini saqlab qolish muhim vazifa hisoblanadi. Chunki, birinchidan, tarjima o'zbek-fransuz adabiy aloqalarida o'ziga xos o'ringa ega bo'lsa, ikkinchidan filologiyadagi ma'lum va mashhur asarlarning tarjima varianti originalga qay darajada mos kelishi hamda tarjimaning asar retsepsiyasiga ta'siri masalasi ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Shunday qilib, badiiy asar tarjimasini o'rganish va asl varianti bilan qiyoslash nafaqat jahon xalqlarining umuminsoniy, ma'naviy-madaniy qadriyatlarini o'rtasidagi uyg'unlikni aniqlash, hamda har bir tilning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy o'rganish bilan birga, tarjima qilingan asar

talqini va retsepsiyasi uchun ham xizmat qiladi. Natijada badiiy asar muallifi nazarda tutgan asar bosh g'oyasi to'g'ri retsepsiya qilinadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Claude Pichois : Retour à Baudelaire. Slatkine Erudition, Genève, 2005. – P.89.
2. Попович А. Проблемы художественного перевода. – М.: «Высшая школа», 1980. – С.33.
3. **Гайбуллох ас-Салом. Исомиддинов З. Қайта яратиш ва аксилтаржимачилик. Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси, 1989 йил, 21 апрель.**
4. Саидов А. Қиёсий адабиётшуносликка кириш. –Тошкент.: Гофур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2020. – Б.31
5. Холбеков. М. Ўзбекистон таржима ва таржимашунослик // Хорижий филология. №3, 2016 йил. – Б. 56.
6. Камю А. Бунтующий человек. – М.: Изд-во политич.литературы. 1990. – С. 134
7. Эшонкул Н таржимаси. Исён ва санъат. (Альбер Камю). // Жаҳон адабиёти. 1997. №1. – Б. 183-197.
8. Камю А. Мен ҳеч нарсадан кўз юммасликни афзал биламан (А.Камю "Кундалиқлар"идан ЎзАС. 2005. 14 январь.
8. Акбарова, Ш. (2023, May).INTREPRETATION DES OEUVRES LITTERAIRES.In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 4, pp. 71-74).
9. Акбарова, Ш. Г., & Шералиев, А. (2023). СТЕРЕОТИПНОЕ В ПОЗНАНИИ ФРАНЦУЗСКОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ. " RUSSIAN" ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ, 9(1).
10. Акбарова, Ш. (2022). Адабиётшуносликда талқин ва герменевтика масалалари. Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке, (1), 44-45.
11. Ganiyevna, A. S. (2023). L'approche Perceptive Des Ouevres Litteraires Dans La Litterature Mondiale. Miasto Przyszłości, 36, 57-61.
- Акбарова, Ш. Г., & Хасанбой, Р. (2023). ФРАНЦУЗСКАЯ ЛИТЕРАТУРА XIX ВЕКА. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(6), 7-10.